



TA’LIM VA FAN SOHASIGA KREATIV YONDASHUVLAR

Kulchayeva Dilfuza Abduqayumovna

*Sirdaryo viloyati bosh boshqarmasiga qarashli 11-sonli ixtisoslashgan "Nurli maskan"
maktab internati pedagog tarbiyachisi.*

Annotatsiya: *Mazkur maqola shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyo mamlakatlari va ularning rivojlanishiga sababchi bo‘layotgan kreativ fikrlar haqida bo‘lib, mamlakatimizda o‘quvchilarning kreativ fikrlashiga erishish ulkan yutuqlarga olib kelishi va bu bilan rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga kirib borishi haqida aytilgan. Bunda o‘quvchilarning kreativ fikrlashini shakllantirish bo‘yicha umumiy ma‘lumotlar, kreativ fikrlashni rivojlantirishning ta‘limdagi ahamiyati, uni rivojlantirishdagi qarashlar, kreativ fikrlashni o‘ziga xos jihatlari haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Ishonamanki, xalqaro tadqiqotlarda yuqori marralarga erishishda kreativlik katta yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *kreativlik, kreativ fikr, katta “K”, kichik “k”, qobiliyat.*

Kreativlik (lot., ing. “create ” - yaratish, “creative” - yaratuvchi, ijodkor) - individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi.²²

Kreativlik deganda, insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Bugungi kundagi 3D printer, to‘rtburchak tarvuzlar, ulkan poliz mahsulotlari, virtual reallik, tuproqsiz hosil olish... bularning barchasi inson tasavvuri, tafakkuri mahsulidir.

Kreativlik bu- inson tasavvurining mahsulidir. Odatda, kreativ insonlar har bir detalni o‘z holicha emas, balki boshqa narsalar misolida taavvur qilishadi. Masalan: oddiy aylanani rasmini ko‘rib, uni quyoshga, oyga, halqaga, odamning boshiga, lupaga, halqaga, ko‘zga, ko‘zguna va boshqa narsalarga o‘xshatadi. Yoki, oddiy stulni chizishda, uni uch oyoqli, ikki oyoqli yoki suyang‘ichini bejirim qilib yondashishi bu – kreativlikni bildiradi

Odatda kreativlik bolalarda tez-tez ko‘zga tashlanib turadi. Kreativ fikrlovchi bolalar ko‘p bo‘lsada, bu bolalarning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo‘lga kiritishlarini belgilab bermaydi. Bolalarda kreativlikni rivojlantirish uchun ularning mazkur xatti-harakatlarini qo‘llab-quvvatlab turish zarur:

- bolalarning ko‘p savollar berishlarini rag‘batlantirish va bu odatni qo‘llab-quvvatlash;

²² <https://hozir.org/18-mavzu-kreativlik-kreativlik-muammosiga-zamonaviy-yondashish.html>



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



- bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
- bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;
- bolalarning qiziqishlariga, iqtidorlariga e'tibor qaratish.

Quyidagilar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

- o'zini tavakkaldan olib qochish;
- fikrlash va xatti-harakatlarda qo'pollikka yo'l qo'yish;
- shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- boshqalarga tobe bo'lish;
- har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash.

Kreativ natijalarga erishish kreativ fikrlay olish qobiliyatini talab qiladi, bundan tashqari u iqtidor, bilim sohasi yoki badiiy qobiliyat kabi bundan ham kengroq va ixtisoslashgan xususiyatlar va ko'nikmalarni talab etadi. Masalan, texnologik yangiliklar yoki san'at durdonalari bilan bog'langan "Katta K" kreativlik, muayyan iqtidor, yuqori darajadagi mutaxassislik, muayyan sohani chuqur egallaganlik hamda jamiyat e'tiborida bo'lish bilan uyg'unlashuvni anglatadi. Shunga qaramasdan, "Kichik K" yoki kundalik kreativlik (masalan, oilaviy rasmlarni ma'lum tartibda tuzib chiqish, qolgan mahsulotlardan mazali taom tayyorlash yoki ishdagi biror muammoga kreativlik bilan yechim topish kreativ fikrlaydigan deyarli barcha odamlarning qo'lidan kelishi mumkin.

Kreativ fikrlash - bu yosh avlodning yaratuvchanlik kompetensiyasi bilan ishlash, bilim olishni rag'batlantiruvchi hamda haqiqiy va samarali yechim topishga yo'naltiruvchi g'oyalarni shakllantirish, bilimda yoki ta'sirli tasavvur ifodalarida yuksalishdir.

Kreativ fikrlash nafaqat bolalarda balki, kattalarda ham mavjud bo'lishi mumkin. Odatda kattalardagi kreativ fikrlash qobiliyati ularning ish jarayonida ko'zga tashlanadi. Bugungi kunda har qaysi soha vakillari orasida kreativ fikrlovchilar ajralib turadi. Bunday soha vakillari kreativlikka yondashib qilayotgan ishlari orqali jamoada barchaning e'tiboriga tushishadi. Chunki, hozirda odamlar har jabhada bir xillikdan zerikib, noanaviy kreativ yondoshuvlarga talab sezmoqda. Masalan:

- oshxonada – oshpazning odatiy pishirgan taomining mehmonlar oldiga juda yuqori did bilan bezatilib yetkazilishi, karving san'ati;
- tikuvchilarning, dizaynerlarning turli bejirim liboslarni yaratishlari;
- televideniya-dagi reklama roliklarida ham kreativlik namunalarini ko'rishimiz mumkin;
- o'qituvchi va murabbiylarning ham dars jarayoniga noanaviy, kreativ yondoshishlarini kuzatishimiz mumkin.

Bugungi kunda psixologiyada shaxs kreativligi uning faoliyatiga xos ikki jihatga ko'ra aniqlanmoqda. Bunda faoliyatning ikki jihatini yorituvchi testlardan foydalaniladi. Ular quyidagilardir:

- farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish;



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



- mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati.

Pedagogning kreativlik potentsiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi.

Kreativ potentsial bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligida, yangi g'oyalarni yaratish, qobiliyati, shuningdek, shaxs xarakteriga xos jihatlari – bir qolipda fikrlamaslikda, o'ziga xoslikda, tashabbuskorlikda, noaniqlikka toqat qilishda, zakovatli bo'lishda aks etadi.

Pedagog kreativlik potentsialiga ega bo'lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e'tiborini qaratishi zarur:

- kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;
- yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish;
- hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish
- ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish;

Har bir pedagogning o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq.

Pedagogning kreativlik potentsialini rivojlantirishda quyidagi metodlardan foydalanish samarali sanaladi:

- muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi.

Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi.

Kreativlik potentsialiga ega pedagog o'zida quyidagi malakalarni namoyon eta oladi:

- bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish;



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



- masalaning qo‘yilishini tahlil qila olish; - masalani hal qilish rejasini tuzish;
- masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va b.)larni qo‘llash;
- masalani hal qilish usullarini tanlay olish;
- qabul qilingan qarorning to‘g‘riligini asoslash va qayta tekshirish; - masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;
- masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala yechimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish

Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi un da kreativlik potensialini yanada rivojlantiradi. Natijada pedagog:

- ijodiy fikrlashga odatlanadi; - ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish ko‘nikmalarini puxta o‘zlashtiradi;
- pedagogika yoki mutaxassislik fani yutuqlari hamda ilg‘or tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini mustaqil tahlil qiladi;
- pedagogik jamoa tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot va ijodiy loyihalarni bajarishda faol ishtirok etadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, kreativ fikrlovchi yoshlarni tarbiyalashimiz mamlakatimizda tub o‘zgarishlarni amalga oshirishimizga imkon beradi. Bugungi kunda barcha rivojlangan mamlakatlarning har bir sohasini kreativ fikrlovchi yoshlar boshqarmoqda. Shuning uchun O‘zbekistonda ham kreativ fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash, ta‘lim va tarbiya jarayoniga kreativlikni olib kirish muhim masalalardan biri bo‘lib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.A.Ismailov, X.J.Daminov, Z.A.Kosimova,G.A.Pirimov “Kreativ fikrlashni baholash”. Toshkent - 2021
2. Рахимбердиева, З. А., & Артикова, Д. М. (2020). Шагазатова Барно Хабибуллаевна. EDITOR COORDINATOR, 468.
3. Djurayev, M., Qurbonova, C., & Husenov, J. (2024). GEOGRAFIYA FANINING MAKTABLARDA O‘TILISH SIFATI. Журнал академических исследований нового Узбекистана, 1(5), 71-73.
4. Ganiyeva, M. (2021). Effective Methods of TRIZ TECHNOLOGY in the Formation of Inventive Abilities of Primary School Pupils. International Journal on Integrated Education, 4(9), 161-163.
5. Abduaziz, G. M. MODELS AND METHODS IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference.
6. Ганиева, М. А., & Жумаева, Ш. Х. (2018). Формирование методов групповой работы с учащимися общеобразовательных школ. Вопросы науки и образования, (10 (22)), 149-151.